

XIII. NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI


2026- yil yanvar-mart oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi

Farg'ona viloyatida 2026- yil yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik ish haqi 5 018,9 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,7 % ga o'sgan.

Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2026- yilning yanvar-mart oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2025- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	5 018,9	115,7
Farg'ona shahri	6 847,5	121,3
Qo'qon shahri	5 562,6	124,2
Quvasoy shahri	4 582,2	108,1
Marg'ilon shahri	4 118,1	111,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq	4 020,4	123,4
Qo'shtepa	4 295,2	117,9
Bag'dod	3 814,0	113,0
Buvayda	4 102,4	101,8
Beshariq	4 159,1	115,9
Quva	3 871,5	114,5
Uchko'prik	4 197,3	103,9
Rishton	4 287,0	110,0
So'x	3 354,2	92,6
Toshloq	5 558,6	111,5
O'zbekiston	3 975,9	109,5
Farg'ona t.	4 386,5	133,5
Dang'ara	4 066,8	111,7
Furqat	3 884,8	109,3
Yozyovon	3 908,9	104,9

Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Farg'ona tumanida 4386,5 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (133,5 %) ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Qo'qon shaharda 5 562,6 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (124,2 %), Oltiariq tumanida 4 020,4 ming so'mni (123,4 %) tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shahrida 6 847,5 ming so'm (121,3 %), Qo'shtepa tumanida 4 295,2 ming so'mni (117,9 %), Beshariq tumanida 4 159,1 ming so'mni (115,9 %), Quva tumanida 3 871,5 ming so'mni (114,5 %), O'zbekiston tumanida 3 975,9 ming so'mni (109,5 %), Furqat tumanida 3 884,8 ming so'mni (109,3 %), Quvasoy shaharda 4 582,2 ming so'mni (108,1 %), Yozyovon tumanida 3 908,9 ming so'mni (104,9 %), Uchko'prik tumanida 4 197,3 ming so'mni (103,9 %), Buvayda tumanida 4 102,4 ming so'mni (101,8 %), So'x tumanida 3 354,2 ming so'mni (92,6 %) tashkil etib, boshqa shahar va tumanlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:



[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2026- yilning yanvar–mart oylariga oid bo'lib, 2025- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, %da
Sanoat	5 808,6	124,3
Qurilish	3 798,1	112,9
Savdo	4 534,1	94,0
Tashish va saqlash	7 900,0	123,6
Yashash va ovqatlanish	2 318,5	60,5
Axborot va aloqa	9 689,7	110,6
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida	11 637,0	121,0
Ta'lim	4 240,2	112,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 937,0	109,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	4 369,5	85,5
O'rtacha	5 018,9	115,7

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari sanoat sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 24,3 % ni, ish haqi miqdori esa 5 808,6 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, tashish va saqlash yo'nalishida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 7 900,0 ming so'mni tashkil etib, o'sish 23,6 % ga, bank, sug'urta faoliyatida ish haqi miqdori 11 637,0 ming so'mni tashkil etib, 21,0 % ga, qurilish sohasida ish haqi miqdori 3 798,1 ming so'mni tashkil etib, 12,9 % ga, ta'lim sohasida ish haqi miqdori 4 240,2 ming so'mni, 12,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi Axborot va aloqa sohasi bo'yicha esa 9 689,7 ming so'mni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 3 937,0 ming so'm ni tashkil etib, 9,7 % ga, savdo sohasida 4 534,1 ming so'm ni tashkil etib, o'sish sur'ati 94,0 % ni tashkil etgan bo'lsada, boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2026- yilning 1-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 11 637,0 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 5 147,5 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 6 035,7 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 4 359,3 ming so'mga, sanoat sohasida 2 602,0 ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 1 436,5 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi, savdo sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 3 073,2 ming so'mga, ta'lim sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 1 911,8 ming so'mga, yashash va ovqatlanish bo'yicha ish haqi miqdori 816,0 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi,
ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi 5 808,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 8 217,0 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 5 329,4 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida 5 164,1 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 534,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'i 4 708,9 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 3 849,0 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasi 4 663,0 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi 7 900,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transpor 779,1 ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti 8 479,4 ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 2 868,1 ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi 9 689,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida 7 250,1 ming so'mni, aloqa sohasi 9 608,7 ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 11 637,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasi 27 516,6 ming so'mni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat 3 968,7 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 11 331,6 ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta sohasida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 240,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 10 565,3 ming so'mni, texnik va professional ta'lim 4 792,0 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 4 511,2 ming so'm, maktabgacha ta'lim sohasi 2 476,0 ming so'mni tashkil etgan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)



V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

Farg'ona viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxonalar va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Viloyatning barcha korxonalar va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralari yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)



XIV. DEMOGRAFIK HOLAT

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-aprel holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 4 239,4 ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,9 foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 21,6 ming nafarni, vafot etganlar 4,6 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 16,9 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga ko'chib kelganlar soni 4 515 kishini va viloyatimizdan ko'chib ketganlar soni 5 032 kishini, qayd etilgan nikohlar 3,9 mingtani, nikohdan ajralishlar 1,4 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	4 239,4	<i>ming kishi</i>
Tug'ilganlar soni	21,6	<i>ming kishi</i>
Vafot etganlar soni	4,6	<i>ming kishi</i>
Ko'chib kelganlar	4 515	<i>kishi</i>
Ko'chib ketganlar	5 032	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	3,9	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	1,4	<i>ming birlik</i>

II. Doimiy aholi soni


Farg'ona viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra 4 239,4 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 77,1 ming kishiga yoki 1,9 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 2 403,3 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 56,7 %), qishloq joylarda esa 1 836,1 ming kishi (43,3%) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 2 099,3 ming kishini (49,5 %), erkaklar esa 2 140,1 ming kishini (50,5 %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025- yil	2026- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 162,3	4 239,4	101,9
Farg'ona shahri	330,0	336,4	101,9
Qo'qon shahri	315,0	321,0	101,9
Quvasoy shahri	103,6	105,2	101,5
Marg'ilon shahri	258,8	262,9	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	234,0	238,1	101,8
Qo'shtepa	214,4	218,8	102,1
Bag'dod	239,2	244,0	102,0
Buvayda	254,0	259,3	102,1
Beshariq	248,0	252,0	101,6
Quva	281,7	286,3	101,6
Uchko'prik	248,2	253,3	102,1
Rishton	222,1	225,9	101,7
So'x	86,5	89,3	103,2
Toshloq	222,9	227,1	101,9
O'zbekiston	242,1	245,7	101,5
Farg'ona t.	227,0	231,1	101,8
Dang'ara	181,9	185,4	101,9
Furqat	130,3	132,8	101,9
Yozyovon	122,6	124,8	101,8

Farg'ona viloyatida 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 627,2 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 11,5 kishiga ortgan (2025-yil 1-aprel holatiga 1 kv km 615,7 kishi).

Aholi zichligi, 1 kv km ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Farg'ona viloyatida 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni 21,6 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,7 promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,2 ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni 4,6 ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,2 ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni 21,6 ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni 11,2 ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan 51,7 %), qiz bolalar soni 10,4 ming kishini (48,3 %) va shahar joylarida 11,4 ming kishini (52,6 %), qishloq joylarida 10,2 ming kishini (47,4 %) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni 4,6 ming kishini, shundan erkaklar 2,6 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 55,0 %), ayollar 2,0 ming kishini (45,0 %) va shahar joylarida 2,5 ming kishini (52,9 %), qishloq joylarida 2,1 ming kishini (47,1 %) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Farg'ona viloyatida 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni 3,9 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 3,8 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming birlikka ko'paygan.

Nikohdan ajralishlar soni 1,4 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,2 ming birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni 3,9 ming birlikni, shundan shahar joylarida 2,0 ming birlikni (51,2 %), qishloq joylarida 1,9 ming birlikni (48,8 %) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni 1,4 ming birlikni, shundan shahar joylarida 0,9 ming birlikni (61,8 %), qishloq joylarida 0,5 ming birlikni (38,2 %) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni 4 515 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 4 504 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar 11 kishini tashkil qildi.

Ko'chib ketganlar jami soni 5 032 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 5 019 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 13 kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Farg'ona viloyati	4 515	4 504	11	5 032	5 019	13
Farg'ona shahri	1 157	1 157	-	834	830	4
Qo'qon shahri	667	667	-	521	520	1
Quvasoy shahri	124	124	-	123	121	2
Marg'ilon shahri	251	250	1	429	429	-
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	75	75	-	195	195	-
Qo'shtepa	204	204	-	210	210	-
Bag'dod	106	106	-	166	166	-
Buvayda	96	96	-	151	146	5
Beshariq	92	92	-	240	240	-
Quva	129	127	2	204	204	-
Uchko'prik	171	171	-	254	254	-
Rishton	101	101	-	179	178	1
So'x	384	384	-	80	80	-
Toshloq	168	168	-	228	228	-
O'zbekiston	186	186	-	420	420	-
Farg'ona t.	238	233	5	321	321	-
Dang'ara	177	177	-	226	226	-
Furqat	128	125	3	148	148	-
Yozyovon	61	61	-	103	103	-

Viloyatga ko'chib kelganlar va viloyatdan ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari



Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-go-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Manzil: 150100, Farg'ona shahar,
Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy
Pochta: farstat@farstat.uz
Tel: 73 241-97-74 (4070)
